

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ASLONOVA LAYLO OLIMOVNA

**ILMIY IJOD ERKINLIGINING KONSITUTSIYAVIY-HUQUQIY
ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Aslonova Laylo Olimovna

Ilmiy ijod erkinligining konsitutsiyaviy-huquqiy asoslari 4

Aslonova Laylo Olimovna

Constitutional and legal foundations of freedom of scientific creativity..... 23

Аслонова Лайло Олимовна

Конституционно-правовые основы свободы научного творчества 43

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific

works.....47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ASLONOVA LAYLO OLIMOVNA

**ILMIY IJOD ERKINLIGINING KONSITUTSIYAVIY-HUQUQIY
ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PhD/Yu668-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bekov Ixtiyor Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamedjanov Amonulla Zokirovich
yuridik fanlar doktori, professor

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 6-sentabr soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1413-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 22-avgustda tarqatildi.

(2025-yil 22-avgustdagi 27-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

A.G'. Asadov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisining o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilmiy ijod erkinligi huquqini xalqaro darajada e'tirof etish, uni insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida kafolatlash, shuningdek, yosh olimlarning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan sohasini yanada jozibador qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish investitsiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishning poydevori sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO ning har to'rt yilda nashr etiladigan «Science Report» hisobotining 2023yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarflangan xarajatlar 2014-2018 yillarda o'rtacha 19,2 foizga o'sgan bo'lsa, 2019-2023 yillarda bu ko'rsatkich 23,4 foizni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida ilmiy ijod erkinligini ta'minlash uchun yaratilayotgan moddiy-texnik shart-sharoitlarning izchil rivojlanib, qo'llab-quvvatlanayotganligini ko'rsatadi¹. Jumladan, 2023-yilda dunyo bo'yicha ayol tadqiqotchilar ulushi 33,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 2,1 foizga yuqoridir². Bu ijobiy dinamika ilmiy ijod erkinligining gender jihatdan teng imkoniyatlar asosida rivojlanib borayotganini namoyon etadi.

Yevropaning «Ipsos Global Trustworthiness Index» tashkiloti tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan so'rovnomada 32 ta mamlakatdan 75 yoshgacha bo'lgan 23,000 dan ortiq katta yoshli fuqarolar ishtirok etgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, olimlar shifokorlar bilan birga Yevropa Ittifoqining 11 ta mamlakatida 21 ta kasb ichida eng ishonchli kasb egalari hisoblanadi. Olimlarga bo'lgan yuqori ishonch darajasi, ayniqsa Ispaniya (65 foiz), Niderlandiya (65 foiz) va Ruminiyada (57 foiz) kuzatilgan. Bu holat olimlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi³.

Mazkur ko'rsatkichlar so'nggi yillarda ilm-fan va texnikani jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishga zamonaviy va samarali texnologiyalarni joriy etish davlatlar uchun birlamchi va eng zarur vazifaga aylanib, bugungi kunda jismonan kuchli insonlar emas, balki intellektual salohiyatli, doimiy ravishda samarali va o'ziga xos yangilik sifatida iqtisodiy rivojlanishga zamin yarata oladigan ijodkor shaxslar ko'proq qadrlanayotganligini ko'rsatmoqda.

Jahonda ilmiy ijod erkinligini konstitutsiyaviy himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarni huquqiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirish, ilmiy ijod erkinligini cheklashning asoslari va chegaralarini aniq belgilash, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ijod mahsulotlarini huquqiy baholash, raqamli va ekologik ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash va ushbu sohalarga investitsiyalar kiritishda ustuvorlik berish bilan bog'liq masalalar muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

¹ UNESCO Science Report: Race Against Time for Smarter Development, UNESCO Publishing, Paris, 2023, p.45. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377250>

² UNESCO Science Report: Race Against Time for Smarter Development, UNESCO Publishing, Paris, 2023, p.45. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377250>

³ <https://www.euronews.com/video/2025/01/17/trust-issues-these-are-the-professions-europeans-trust-the-most-and-the-least>

O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ilmiy ijod erkinligini ta'minlash, bu sohadagi qanday milliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, xususan, ilmiy faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirish va ularni tijoratlashtirish, intellektual mulkning huquqiy himoyasini takomillashtirish, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

«Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, tegishli yo'nalishlar bo'yicha mavzuli ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va ularning natijalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish» ustuvor maqsadlari sifatida etib belgilangan bo'lib⁴, mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni dolzarb etib belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi (2019), «Ta'lim to'g'risida»gi (2020), «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi (2020), «Pedagogning maqomi to'g'risida»gi (2024) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni, 2023-yil 11-seniyabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi «Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy olimlarimiz tomonidan ilmiy ijod va akademik erkinlik kafolatlari, shaxsning ijod qilish huquqi, ilmiy darajalar olish, ushbu sohada nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik masalalariga bag'ishlangan turli izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, mazkur sohaga oid

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

izlanishlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shaxsning ilmiy ijod erkinligini konstitutsiyaviy-huquqiy ta‘minlash bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarni quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lgan holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, milliy yuridik fanda A.Saidov, R.Hakimov, Sh.Yakubov, A.Mirkomilovlar o‘zlarining ilmiy maqolalarida ilmiy ijod va akademik erkinlik kafolatlarini tahlil qilgan. Bundan tashqari, A.Rasulev, Sh.Xo‘jaev, D.Matrasulov, S.Saidov, V.Xan kabi olimlar ommabop maqolalarida O‘zbekistonda ilm-fan taraqqiyotining ahvoli, akademik erkinlik istiqbollari yuzasidan o‘zlarining ilmiy asoslantirilgan fikrlarini bildirgan. Shu bilan birga ilmiy ijod erkinligi bilan bog‘liq ravishda ijodkor muallif huquqlarining mohiyatini O.Okyulov, A.Egamberganov va M.Inagamovalarning ilmiy ishlarida kuzatishimiz mumkin⁵. Ammo, yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil etishning nazariy va amaliy masalalari, ayniqsa ilm-fan huquqi va erkinligini ta‘minlashning huquqiy mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek, ilg‘or xorij tajribasi asosida alohida dissertatsiya sifatida milliy olimlar tomonidan tadqiq etilmagan.

Ikkinchidan, MDH mamlakatlaridan D.S.Shaporeva, I.D.Yagofarova, O.V.Romanovskaya, D.I.Artemova, N.V.Chernix, S.Yu.Kashkin, L.G.Berlyavskiy, L.A.Kisileva kabi olimlar ilmiy ijod erkinligining huquqiy tabiatini tadqiq etganligini ko‘rishimiz mumkin⁶.

Uchinchidan, Yevropa va uzoq xorijiy mamlakatlar olimlaridan L.Shaver, Andrea Boggio and Cesare P.R.Romano (AQSh), Amedeo Santosuosso (Italiya) ilm-fanga bo‘lgan huquq nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, W.A. Schabas (AQSh), Artur Bilgorajski (Polsha), A.Chapman, J. Vindxam, Helle Porsdarm, Sebastian Porsdarm Mann (Shveysariya), T.L.Harris, Walter P. Metzger kabi olimlarning ishlarida ilmiy faoliyat erkinligining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy jihatlari tahlil etilgan⁷.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida insonning fundamental huquqlarini ta‘minlashni takomillashtirish» mavzusidagi ish rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning ilmiy ijod erkinligi huquqini ta‘minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va va ushbu sohadagi qonun hujjatlari hamda huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy ijod erkinligi tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning ijtimoiy-huquqiy tabiatini tadqiq qilish;

⁵ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

⁶ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

⁷ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy xususiyatlarini tahlil qilish, uning inson huquqlari tizimidagi tutgan o‘rnini o‘rganish;

ilmiy ijod erkinligi institutining shakllanish jarayonini, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini hamda turli davrlardagi xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini, milliy qonunchilikdagi mustahkamlash darajasini hamda normativ-huquqiy bazaning holatini tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning milliy mexanizmlarini, ularning samaradorlik darajasini baholash hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

ilmiy xodimlarning huquqiy maqomini, ularning ilmiy ijod erkinligini amalga oshirish imkoniyatlari va kafolatlari tizimini o‘rganish;

ilmiy ijod erkinligini cheklashning huquqiy asoslarini, cheklovlar qo‘yilishi mexanizmlarini hamda ularning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi masalalarini tahlil qilish;

xalqaro-huquqiy hujjatlarda ilmiy ijod erkinligi mustahkamlanishi standartlarini, xalqaro kafolatlash mexanizmlarini hamda ularning milliy huquq tizimiga ta‘sirini tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasida shaxsning ilmiy ijod erkinligi huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti shaxsning ilmiy ijod erkinligi huquqini ta‘minlash bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xalqaro umume‘tirof etilgan standartlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda «Konstitutsiyaviy huquq»da, «Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq»da mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, so‘rovnomalar, induksiya, deduktsiya va statistik ma‘lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lishi zarurligi asoslab berilgan;

ilmiy tashkilotlar qonunchilikda belgilangan tartibda ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari va boshqa tashkilotlarni, shuningdek noyob ilmiy obyektlarni tashkil etish huquqiga ega ekanligi asoslangan;

ilmiy ekspertiza qonunchilikka muvofiq davlat, xizmat va tijorat sirlariga rioya qilgan holda ekspertiza natijalarining ochiqligi tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilishi zarurligi asoslab berilgan;

ilm-fan va ilmiy faoliyatning milliy axborot makoni bilan uzviy bog'liqligi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday axborot resurslaridan qonunchilikda belgilangan tartibda erkin foydalanish orqali ta'minlanishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy ijod erkinligining tarkibiy elementlari – tadqiqot yo'nalishini tanlash erkinligi, metodologiyani tanlash erkinligi, ilmiy natijalarni e'lon qilish erkinligi, ilmiy hamkorlikni amalga oshirish erkinligi va ilmiy muloqot hamda munozara erkinligi kabi elementlarni O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunida mustahkamlash zarurligi isbotlandi;

O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlarini kiritish bo'yicha taklif ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga ilmiy ijod erkinligini cheklash mezonlari – qonuniylik, mutanosiblik va zaruriylik prinsiplarini kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi va ularni qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslantirildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Ilmiy ishlarga qo'yiladigan tadqiqot etikasi, halollik qoidalari va standartlari»ni tasdiqlash zarurligiga oid taklif ishlab chiqildi, bunda ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan milliy standartlar, ilmiy natijalarni tekshirish mexanizmlari, ilmiy etika qoidalari va ilmiy ishlarni e'lon qilish tartibini belgilash zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumnazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar «Konstitutsiyaviy huquq», «Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq» va «Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari» fanlarida mavjud bo'lgan nazariy qarashlarni va milliy qonunchilik normalarini hamda huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslantirilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingaligi, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik manbalari o'zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilayotganligi, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda «Konstitutsiyaviy huquq», «Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq», «Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari» fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida shaxsning ilmiy tadqiqot o'tkazish erkinligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy

hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, ilm-fan subyektlari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy ijod erkinligining konsitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonunchilik ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonunining 10-moddasi uchinchi xatboshisi yangi tahrirda ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 30-yanvardagi №3/08-16-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati institutlarining ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibini joriy qilishga xizmat qilgan;

ilmiy tashkilotlar qonunchilikda belgilangan tartibda ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari va boshqa tashkilotlarni, shuningdek noyob ilmiy obyektlarni tashkil etish huquqiga ega ekanligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonunining 16-moddasi ikkinchi qismini yangi tahrirda ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 30-yanvardagi №3/08-16-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ilmiy tashkilotlarni ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari va boshqa tashkilotlarni, shuningdek noyob ilmiy obyektlarni tashkil etish huquqini belgilashga xizmat qilgan;

ilmiy ekspertiza qonunchilikka muvofiq davlat, xizmat va tijorat sirlariga rioya qilgan holda ekspertiza natijalarining ochiqligi tamoyiliga tayangan holda amalga oshirilishi zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonunining 26-moddasi ikkinchi qismining oltinchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 30-yanvardagi №3/08-16-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ilmiy ekspertiza o'tkazish tamoyillarini zamon talablari asosida o'tkazish tartibini belgilashga xizmat qilgan;

ilm-fan va ilmiy faoliyatning milliy axborot makoni bilan uzviy bog'liqligi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday axborot resurslaridan qonunchilikda belgilangan tartibda erkin foydalanish orqali ta'minlanishi zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi

O‘RQ-576-son Qonunining 30-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisini yangi tahrirda ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 30-yanvardagi №3/08-16-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ilm-fan va ilmiy faoliyatning milliy axborot makonini belgilashda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar har qanday axborot resurslaridan qonunchilikda belgilangan tartibda erkin foydalanish tartibini joriy qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 9 ta (3 ta xorijiy nashrlarda) va to‘plamlar tarkibida 4 ta ilmiy maqola chop yetilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, o‘n paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ish rejasi bilan o‘zaro bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, ushbu natijalarning ishonchliligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi hamda natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi kabi masalalar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ilmiy ijod erkinligi institutining nazariy-huquqiy asoslari**» deb nomlanib, unda ilmiy ijod erkinligi tushunchasi va uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati, ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati va uning inson huquqlari tizimidagi o‘rni, ilmiy ijod erkinligi huquqiy asoslarining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Muallif ilmiy ijod erkinligi tushunchasining tabiatini o‘rganib, uning huquqiy mazmunini ochib bergan. Tadqiqotchi ilmiy ijod erkinligini keng va tor ma‘noda talqin qilgan. Keng ma‘noda – bu shaxsning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyati bo‘lsa, tor ma‘noda – tadqiqot yo‘nalishini erkin tanlash, ilmiy natijalarni erkin tarqatish va ulardan foydalanish huquqlarini o‘z ichiga olgan konstitutsiyaviy huquqdir.

Tadqiqotchi xorijiy olimlarning (M.Polanyi, R.K.Merton, R.Berdahl, P.Dasgupta, P.A.David, J.Butler) ilmiy qarashlarini tahlil qilib, ilmiy ijod erkinligining **uch asosiy elementini** ajratib ko‘rsatgan: tadqiqot mavzusini tanlash erkinligi, metodologik mustaqillik va natijalarni e‘lon qilish erkinligi. Muallif tomonidan ilmiy ijod erkinligi professional malaka va mas‘uliyatga asoslangan, jamiyat manfaatlarini ko‘zlovchi va kasbiy ekspertizaga tayangan erkinlik shakli

ekanligi, bu huquq va majburiyat uyg'unligi bo'lib, etik me'yorlar, metodologik talablar va ijtimoiy mas'uliyat doirasida amalga oshirilishi lozimligi haqida ilmiy xulosa shakllantirilgan.

Tadqiqot doirasida ilmiy ijod erkinligining integrativ konsepsiyasi har tomonlama tahlil qilinib, uning O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish zarurati asoslab berilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan ushbu konsepsiya ilmiy faoliyatni tartibga solishning tarqoq yondashuvidan voz kechib, yagona kompleks tizimni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamlash, davlat organlari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni integrativ tamoyillar asosida tartibga solish, fanlararo hamkorlikni rag'batlantiruvchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarur degan ilmiy hulosaga kelgan. Muallif ushbu yondashuv O'zbekistonda ilm-fan sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro ilmiy hamjamiyatga samarali integratsiyalashuv va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ekanligini qayd etadi.

Muallif ilmiy ijod erkinligining huquqiy tabiatini ochib berishda uning ikkita muhim jihatini ajratib ko'rsatgan: subyektiv huquq sifatida – shaxsning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati; obyektiv huquq sifatida - davlatning ilmiy faoliyatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash majburiyati.

Tadqiqotchi ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatini o'rganib, uni inson huquqlari tizimida alohida o'rin tutishini asoslab bergan. Uning fikr erkinligi, ta'lim olish huquqi, intellektual mulk huquqi kabi boshqa asosiy huquqlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Muallif ilmiy ijod erkinligining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilgan holda, ushbu jarayonni **beshtas asosiy davrga ajratish** zarurligini asoslab bergan. **Birinchi bosqich** – antik va o'rta asrlar davri bo'lib, bu davrda ilmiy bilimlar asosan diniy va falsafiy ta'limotlar doirasida rivojlangan, ilm-fan erkinligi cheklangan bo'lsa-da, dastlabki ilmiy maktablar shakllanishi kuzatilgan. **Ikkinchi bosqich** – ilm-fanda uyg'unlash davri (Nikolay Kopernik, Galileo Galiley davri) ilmiy inqiloblar, eksperimental uslublarning rivojlanishi va diniy dogmalardan mustaqil ilmiy fikrlashning shakllanishi bilan tavsiflanadi. **Uchinchi bosqich** – Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida ilm-fanning jadal rivojlanishi, davlatlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va nazorat qilish mexanizmlarining kuchayishi, harbiy-texnologik raqobat sharoitida ilmiy kashfiyotlarning ahamiyati ortishi bilan ajralib turadi. **To'rtinchi bosqich** – Ilm-fanni tartibga soluvchi xalqaro standartlarning paydo bo'lish davri bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi, xalqaro ilmiy hamkorlik mexanizmlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. **Beshinchi bosqich** – sun'iy intellekt davrida ilm-fanda yangi texnologik imkoniyatlar, raqamli transformatsiya, ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullarini joriy qilinishi va ilmiy tadqiqotlarning avtomatlashtirilishi orqali sifat jihatidan yangi bosqichni boshlanishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotda O'zbekiston tajribasi alohida o'rganilgan. XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati va keyingi sovet davri qatag'onlari tahlil qilinib, ilmiy-ijodiy

faoliyat erkinligiga qarshi qaratilgan cheklovlar nafaqat alohida olimlarning taqdiriga, balki butun bir xalqning ilmiy-madaniy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi asoslab berilgan.

Muallif zamonaviy davrda ilmiy ijod erkinligining yangi qirralarini ochib bergan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ilm-fan huquqi nafaqat ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish, balki ilmiy uslub va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Bu esa mazkur huquqning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Dissertatsiyaning ushbu bobida muallif tomonidan qilingan eng muhim xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchi, ilmiy ijod erkinligi – bu shaxsning tabiiy huquqi sifatida uning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu erkinlik tug'ma xarakterga ega bo'lib, davlat tomonidan berilmaydi, balki tan olinadi va kafolatlanadi.

Ikkinchi, ilmiy ijod erkinligi mutlaq xarakterga ega emas. Uning chegaralari qonun bilan belgilanadi va bu chegaralar jamiyat manfaatlari, axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari va xavfsizlik talablari bilan asoslanadi.

Uchinchi, zamonaviy sharoitda ilmiy ijod erkinligini ta'minlash masalasi global ahamiyat kasb etmoqda, bu esa xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Tadqiqotchi qonunchilik darajasida «ilmiy ijod erkinligi» tushunchasining huquqiy ta'rifini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlagan. Ushbu tushuncha ilmiy ijod erkinligining tarkibiy elementlari, ilmiy ijod erkinligining chegaralari, davlatning ilmiy ijod erkinligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini qamrab olishi zarurligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyada xorijiy va mahalliy olimlarning (R.Post, J.Habermas, G.Martino, R.Alexy, S.S.Alekseyev, A.Saidov, R.Hakimov, Sh.Yakubov) ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatidagi mohiyatini chuqur o'rgangan. Tadqiqotchi bu borada ilmiy ijod erkinligining to'rtta asosiy belgisini aniqlagan: universallik (barcha fan sohalariga taalluqlilik), mustaqillik (tadqiqotchining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati), mas'uliyatlilik (ilmiy etika va huquqiy normalar doirasida faoliyat yuritish) va himoyalanganlik (davlat tomonidan huquqiy kafolatlar va himoya mexanizmlarining mavjudligi).

Tadqiqotchi ilmiy ijod erkinligining ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi mumkinligiga oid yondashuvni ilgari suradi: **birinchi yo'nalish** – ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish erkinligi (tadqiqot mavzusini tanlash, metodologiyani belgilash va boshqalar); **ikkinchi yo'nalish** – ilmiy natijalardan foydalanish erkinligi (tadqiqot natijalarini e'lon qilish, tarqatish va amaliyotga joriy etish).

Muallif ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilib, bu borada YUNESKO tavsiyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bergan. 2017-yilgi «Ilm-fan va ilmiy tadqiqotchilar to'g'risida»gi tavsiyada ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning asosiy tamoyillari belgilab berilganligi alohida ta'kidlangan.

Tadqiqotda ilmiy ijod erkinligining «akademik erkinlik» tushunchasi bilan

o‘zaro nisbati masalasi ham chuqur o‘rganilgan. Muallif bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib bergan: ilmiy ijod erkinligi kengroq tushuncha bo‘lib, u nafaqat oliy ta‘lim sohasidagi, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini to‘liq qamrab oladi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati – ilmiy ijod erkinligini raqamli davrda ta‘minlash masalasini o‘rganganligidir. Muallif raqamli texnologiyalar ilmiy faoliyat uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, yangi muammolarni ham keltirib chiqarayotganini tahlil qilgan.

Muallif tomonidan ilmiy ijod erkinligini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlarning o‘rni masalasi ham o‘rganilgan. Bu borada davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Muallif tomonidan qilingan yana bir muhim xulosa – bu ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashda xalqaro hamkorlikning ahamiyati tobora oshib borayotganligi. Bu esa o‘z navbatida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Muallif tomonidan ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O‘zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini tartibga solishning huquqiy asoslari va amaliyoti**»ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda O‘zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning milliy mexanizmlari va uni takomillashtirish, ilmiy xodimlarning huquqiy maqomi va ularning ilmiy ijod erkinligini amalga oshirish kafolatlari, ilmiy ijod erkinligini cheklashning huquqiy asoslari va mexanizmlari o‘rganilgan.

Muallif ilmiy ijod erkinligini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslarini o‘rganib chiqib, bu huquqning ikki muhim jihatini ajratib ko‘rsatgan. **Birinchi**dan, bu huquq insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. **Ikkinchi**dan, ilmiy ijod erkinligi davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi lozim bo‘lgan huquqdir.

Tadqiqotchi O‘zbekistonda ilmiy ijod erkinligini ta‘minlashning huquqiy asoslari tizimini tahlil qilib, ularni to‘rt guruhga ajratgan: birinchi – maxsus qonunlar («Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunlar); ikkinchi – strategik hujjatlar («Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi», «O‘zbekiston-2030 strategiyasi»); uchinchi – sohaviy normativ hujjatlar; to‘rtinchi – xalqaro-huquqiy hujjatlar.

Muallif ilmiy xodimlarning huquqiy maqomini tahlil qilib, qonunchilikda «ilmiy xodim», «tadqiqotchi», «olim» kabi tushunchalarga aniq ta‘rif berilmaganligini aniqlagan. Shu munosabat bilan muallif «ilmiy xodim» tushunchasiga quyidagi ta‘rifni taklif etgan: «ilmiy xodim – zarur malakaga ega bo‘lgan hamda ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyat bilan professional ravishda shug‘ullanuvchi shaxs».

Tadqiqotchi «yosh olim» institutiga oid xalqaro tajribani o‘rganib chiqib quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: «yosh olim – ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, yoshi 35 dan oshmagan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega shaxs yoki yoshi 40 dan oshmagan fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega shaxs».

Dissertatsiyada bir qator xorijiy olimlarning (R.I.Sitdikova, I.T.Kasavin,

G.A.Vasilevich, A.R.Chapman, R.Jongsma Karin) ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ilmiy ijod erkinligini cheklashning huquqiy asoslari va mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif bunday cheklovlar faqat qonun asosida va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'rnatilishi mumkinligini asoslab bergan. Bunda ilmiy faoliyatning etik me'yorlari, xavfsizlik talablari va boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilish zarurligi ta'kidlangan.

Muallif ilmiy ijod erkinligiga oid cheklovlar uchta asosiy mezonga muvofiq amalga oshirilishi lozimligini asoslab bergan: qonuniylik – faqat qonunda belgilangan asoslarda; mutanosiblik – ko'zlangan maqsadga mos ravishda; zaruriylik – boshqa usullar bilan maqsadga erishib bo'lmagan hollarda.

Tadqiqotchi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunni takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqqan. Jumladan, Qonunga ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarning javobgarligi, ilmiy loyihalarni ekspertizadan o'tkazishdagi cheklovlar bo'yicha yangi normalar kiritishni taklif etgan.

Muallif tomonidan Konstitutsiyaning 53-moddasidagi «Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi» degan normani «Intellectual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalari qonun bilan muhofaza qilinadi» deb o'zgartirish taklif etilgan. Bu taklif intellektual mulk tushunchasining zamonaviy talqinini aks ettiradi.

Tadqiqotchi qonunchilikka «ilmiy ijod erkinligi» tushunchasining ta'rifini kiritishni taklif qilgan. Muallif O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga quyidagi tahrirda qo'shimcha kiritish taklif etgan: *«ilmiy ijod erkinligi – bu shaxsning ilmiy-tadqiqot faoliyatini erkin tanlash, amalga oshirish va natijalarini tarqatish bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatlangan huquqi bo'lib, u davlat tomonidan huquqiy, tashkiliy va moliyaviy jihatdan ta'minlanadi»*.

Tadqiqotchi tomonidan bir guruh olimlarning (M.A.Peters, E.Chemerinsky, E.Luca, R.Albert, L.Henkin) fikrlari tahlil qilinib, ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va milliy mexanizmlari yuzasidan mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan. Muallif ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlarini tizimlashtirgan va ularni **to'rt guruhga** ajratgan: ilmiy ijod erkinligini himoya qilishning davlat mexanizmlari; ilmiy ijod erkinligini o'z-o'zini himoya qilish mexanizmlari; ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari; ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning moliyaviy mexanizmlari.

Tadqiqotchi ilmiy xodimlarning javobgarligi masalasini chuqur o'rganib, O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasiga qo'shimcha kiritishni taklif etgan. Unga ko'ra ilmiy xodimlar quyidagi holatlarda javobgar bo'ladi: ilmiy faoliyat natijalaridan jamiyat manfaatlariga zid maqsadlarda foydalanganlik uchun; ilmiy tadqiqotlar jarayonida inson huquqlari va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar sodir etganlik uchun; ilmiy ekspertiza jarayonida xolislikni buzganlik uchun.

Tadqiqotchi ilmiy loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda quyidagi cheklovlar bo'yicha xalqaro standartlar va doktrinal qarashlarni tadqiq etib, quyidagi yondashuvni ilgari suradi: insonni klonlash tadqiqotlari; embrional hujayralar ustida tajribalar; irsiy genlarga aralashuvni nazarda tutuvchi tadqiqotlar; biologik qurollar

yaratish imkonini beruvchi ilmiy izlanishlar; ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi tajribalar.

Tadqiqotchi tomonidan ilmiy xodimlarning huquqiy maqomini mustahkamlash bo'yicha ilmiy yondashuv taqdim etildi. Unga ko'ra, ilmiy xodimning huquqiy maqomi uch asosiy elementni o'z ichiga oladi: professional malaka, kasbiy faoliyat va ijtimoiy kafolatlar.

Muallifning fikricha, ilmiy ijod erkinligi inson huquqlarining ikkinchi avlod huquqlari sirasiga kirib, shaxsning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu huquq nafaqat individual, balki jamoaviy xarakterga ham ega bo'lib, jamiyatning intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, O'zbekistonda ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslari ilmiy faoliyatni tashkil etishning ko'p jihatlarini qamrab oladi. Bu tizim qisqa va uzoq muddatli rivojlanishning ustuvor va strategik yo'nalishlarini belgilab beradi.

Dissertantning fikricha, ilmiy ijod erkinligining nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud. Amaldagi qonunchilikda ilmiy ijod erkinligining aniq ta'rifi mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunida «ilmiy ijod erkinligi» tamoyil sifatida tilga olingan bo'lsada, uning huquqiy mazmuni ochib berilmagan.

Dissertatsiyada ilmiy ijod erkinligini cheklash masalasi chuqur tahlil qilingan. Muallif bu cheklovlar uchta asosiy mezonga muvofiq amalga oshirilishi lozimligini asoslab bergan: qonuniylik – faqat qonunda belgilangan asoslarda; mutanosiblik – ko'zlangan maqsadga mos ravishda; zaruriylik – boshqa usullar bilan maqsadga erishib bo'lmagan hollarda.

Muallifning fikricha, ilmiy xodimlarning huquqiy maqomini tartibga solishda ularning turli toifalarini (ilmiy-pedagogik xodimlar, davlat ilmiy tashkilotlari xodimlari va boshqalar) inobatga olgan holda, har bir toifa uchun alohida huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotchining fikricha, davlatning ilmiy ijod erkinligini ta'minlash majburiyati – bu davlat ilmiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ishonchli sud himoyasi bilan ta'minlashni anglatadi.

Dissertatsiyada ilmiy ijod erkinligining huquqiy kafolatlari masalasi yoritilgan. Bunda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari tahlil etilgan. Muallif bu kafolatlarni uchta asosiy guruhga – huquqiy, tashkiliy va moliyaviyga ajratgan.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda ilmiy ijod erkinligini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Muallifning takliflari ilmiy faoliyat subyektlarining huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning xalqaro standartlari va O'zbekistonda uni takomillashtirish istiqbollari**» deb nomlandi. Ushbu bobda ilmiy ijod erkinligining xalqaro-huquqiy hujjatlarda

mustahkamlanishi va uning kafolatlanishi, qiyosiy-huquqiy tahlil asosida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida ilmiy ijod erkinligining tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasida ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari tahlili qilingan.

Muallifning fikricha, ilmiy ijod erkinligi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan muhim huquqlardan biridir. Bu huquqning xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solinishi va kafolatlanishi masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki globallashtirish sharoitida ilmiy tadqiqotlar xalqaro miqyosda amalga oshirilmoqda va ilmiy hamkorlik kuchaymoqda.

Dissertant ko'rsatishicha, ilmiy ijod erkinligining ijtimoiy-huquqiy mohiyati turli xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida ilmiy ijod erkinligi asosiy inson huquqlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu normaning huquqiy mohiyati shundaki, u ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini universal inson huquqi sifatida mustahkamlaydi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ilm-fan sohasidagi huquqlarning xalqaro huquqiy hujjatlarda tartibga solinishi masalasi uzoq vaqt davomida yetarlicha e'tibordan chetda qolib kelgan. Bu holat, ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan.

Tadqiqotchi xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida ilmiy ijod erkinligining tartibga solinishi qiyosiy tahlil qilgan holda muallif konstitutsiyalarda ilmiy-ijod erkinligining ikki asosiy guruhga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatgan: birinchi guruh – o'qitish erkinligi va ilmiy ijod huquqini birgalikda kafolatlovchi konstitutsiyalar (AQSH, Xitoy, Portugaliya, Germaniya va Belarus); ikkinchi guruh – kompleks yondashuvni qo'llagan konstitutsiyalar (Gretsiya, Litva va Polsha).

Muallifning fikricha, O'zbekistonda ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun bir qator muhim vazifalarni hal etish zarur. Xususan, ilmiy tadqiqotlar mavzularini davlat, biznes-nodavlat sektorlari buyurtmalari asosida shakllantirish tizimini takomillashtirish, ilmiy faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Muallifning fikricha, zamonaviy xalqaro amaliyotda ilm-fan sohasidagi huquqlarni ta'minlashning kompleks mexanizmi ilmiy ijod erkinligini kafolatlash, ilmiy natijalarni tarqatish va ulardan foydalanish huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Dissertant o'z tadqiqotida O'zbekistonda ilmiy ijod erkinligini ta'minlash sohasida bir qator muammolar mavjudligini aniqlagan. Xususan, ilm-fanga ajratilgan mablag'lar dinamikasi notekis ravishda shakllangan – YaIMga nisbatan ulushi 2020-2023 yillarda 0,31 foizdan 0,81 foizgacha oshgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 0,21 foizgacha tushgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda xususiy sektor ishtiroki past darajada ekanligi va davlat ilmiy-texnik dasturlari mablag'lari kamayish tendensiyasi kuzatilganligi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi ko'rsatishicha, respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida doktorlik dissertatsiya himoyalari (PhD) sonida keskin kamayish kuzatilgan – himoyalar soni 2023 yildagi 3100 tadan 2024 yilda 807 tagacha tushgan. Bu holat ilmiy-tadqiqot sohasida tizimli islohotlar zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada sun'iy intellekt bilan bog'liq ilmiy ijod erkinligini amalga oshirish masalasi ham chuqur tahlil qilingan. Muallifning fikricha, qonunchilikda sun'iy intellektga asoslangan ilmiy ijod erkinligi, uning tabiati va uni cheklash asoslari, senzura mezonlari, vakolatli subyektlar doirasi aniq belgilanmagan. Bu esa o'z navbatida ushbu sohani huquqiy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muallif O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga qo'shimchalar kiritish, jumladan: «raqamli ilmiy faoliyat» tushunchasini va uning mazmunini belgilash; Oliy attestatsiya komissiyasining vakolatlari va funktsiyalarini aniq ko'rsatish; ilmiy daraja va unvonlarni berish tartibini qonun darajasida belgilash; Vazirlar Mahkamasi qarori bilan «Ilmiy ishlarga qo'yiladigan tadqiqot etikasi, halollik qoidalari va standartlari»ni tasdiqlash; «Sanoat doktoranturasi to'g'risida»gi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash va boshqalar.

Dissertantning xulosasiga ko'ra, bu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga, ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirishga va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mavzusidagi tadqiqot ishi bo'yicha quyidagi ilmiy-nazariy va normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Tadqiqotlar natijasida ilmiy ijod erkinligi mohiyatan professional malaka va mas'uliyatga asoslangan, jamiyat manfaatlarini ko'zlovchi va kasbiy ekspertizaga tayangan erkinlik shakli ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ilmiy ijod erkinligi insonning tabiiy huquqi sifatida uning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi, bu erkinlik tug'ma xarakterga ega bo'lib, davlat tomonidan berilmasligi, balki tan olinishi va kafolatlanishi asoslab berildi.

2. Ilmiy tahlillar ilmiy ijod erkinligi konstitutsiyaviy huquq sifatida ikki muhim jihatni o'z ichiga olishini ko'rsatdi: **birinchidan, subyektiv huquq** sifatida shaxsning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini nazarda tutsa, **ikkinchidan, obyektiv huquq** sifatida davlatning ilmiy faoliyatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash majburiyatini anglatadi.

3. Dissertatsiya doirasida ilmiy ijod erkinligining **to'rtta asosiy belgisi** aniqlandi: universallik (barcha fan sohalariga taalluqliligi); mustaqillik (tadqiqotchining ilmiy izlanish yo'nalishini tanlash erkinligi); mas'uliyatlilik (ilmiy etika va huquqiy normalar doirasida amalga oshirilishi); himoyalanganlik (davlat tomonidan huquqiy kafolatlarning mavjudligi). Shuningdek, ilmiy ijod erkinligi boshqa konstitutsiyaviy huquqlar fikr erkinligi, ta'lim olish huquqi, intellektual mulk huquqi bilan chambarchas aloqada namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tildi.

4. Ilmiy ijod erkinligi quyidagi **komponentlarni qamrab olishi asoslab berildi**: ilmiy tadqiqot yo'nalishi va metodlarini tanlash erkinligi; ilmiy natijalarni

e'lon qilish erkinligi; ilmiy tajribalar o'tkazish erkinligi; ilmiy axborotdan foydalanish erkinligi.

Tadqiqot natijalari ilmiy ijod erkinligi mutlaq xarakterga ega emasligini ko'rsatdi. Uning chegaralari qonun bilan belgilanadi va bu chegaralar jamiyat manfaatlari, axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari va xavfsizlik talablari bilan asoslanishi zarurligi isbotlandi.

5. Xorijiy davlatlar ilmiy doktrinalarida va qonunchiligida «ilmiy ijod erkinligi» tushunchasi mavjud bo'lmasa-da uning mazmuni «ilmiy erkinlik», «ilmiy faoliyat erkinligi», «akademik erkinlik», «ijod erkinligi», «o'qitish erkinligi», «ilm-fan erkinligi» kabi turli tushunchalar bilan qamrab olingan. Bunday farqlanish huquq tizimi, qonunchilik texnikasi va milliy konstitutsiyaviy rivojlanish bilan bog'liq deb hisoblaymiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan «ilmiy ijod erkinligi» tushunchasining ta'rifi milliy qonunchilikda mavjud emas.

«Ilmiy ijod erkinligi – bu professional malaka va mas'uliyatga asoslangan, jamiyat manfaatlarini ko'zlovchi va kasbiy ekspertizaga tayangan erkinlik shaklidir». Shaxsning ilmiy ijod erkinligi – bu huquq va majburiyat uyg'unligi bo'lib, u etik me'yorlar, metodologik talablar va ijtimoiy mas'uliyat doirasida amalga oshirilishi lozim.

6. Ilmiy tahlillar natijasida ilmiy ijod erkinligini cheklash - bu ilmiy faoliyatni taqiqlash emas, balki uni tartibga solish mexanizmi ekanligi isbotlandi. Cheklashlar orqali ilm-fan rivoji bilan jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanat ta'minlanishi ko'rsatib berildi.

7. **«Ijodiy erkinlik» va «ijodiy erkinlik huquqi»** tushunchalari o'rtasidagi nisbat tahlil qilinib, «ijodiy erkinlik» tushunchasi kengroq mazmunga ega bo'lib, u harakat qilish uchun ko'proq imkoniyatlarni, xulq-atvorni tanlashning turli xil variantlarini qamrab oladi va turli cheklovlar hamda to'siqlarning yo'qligini nazarda tutadi.

8. Tadqiqotlar doirasida ilmiy ijod erkinligining **huquqiy tuzilishi** harakat qilish huquqi; talab qilish huquqi; da'vo qilish huquqi; foydalanish huquqi kabi elementlarni qamrab olishi hamda ushbu elementlarning har birini mazmuni ochib berildi.

9. Xalqaro hujjatlarga ko'ra **davlatlar** ilmiy ijod erkinligini ta'minlash bo'yicha **quyidagi majburiyatlarni** olishi ko'rsatib o'tildi: hurmat qilish majburiyati (ilmiy faoliyatga to'sqinlik qilmaslik); himoya qilish majburiyati (uchinchi shaxslar tomonidan buzilishiga yo'l qo'ymaslik); amalga oshirish majburiyati (zarur shart-sharoitlar yaratish).

10. Ilg'or xorijiy davlatlar konstitutsiyalari tahlil qilinib ilmiy ijod erkinligi **to'rt asosiy yo'nalishda tartibga solinmoqda**: ilmiy tadqiqot olib borish erkinligi, ilmiy natijalarni tarqatish huquqi, ilmiy yutuqlardan foydalanish huquqi va intellektual mulk huquqi. Bu esa ilmiy faoliyatning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yaxlit huquqiy mexanizmni yaratish zaruratini keltirib chiqarishi asoslab berildi.

11. Xorijiy davlatlar konstitutsiyalari tahlil qilinib, ushbu sohani konstitutsiyaviy tartibga solishning **ikki asosiy modeli** shakllanganligi asoslab berildi: **birinchisi** – o'qitish erkinligi va ilmiy ijod huquqini birgalikda kafolatlovchi model (Belarus, Xitoy, Portugaliya, Germaniya); **ikkinchisi** – o'qitish erkinligi,

ilmiy faoliyat erkinligi va oliy ta'lim muassasalari avtonomiyasini kompleks tarzda kafolatlovchi model (Gretsiya, Litva, Polsha). Bu esa davlatlarning o'z huquqiy an'analari va ta'lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, turli yondashuvlarni tanlaganini ko'rsatadi.

12. Ilmiy adabiyotlarda qo'llanilayotgan «ilmiy ijod erkinligi» tushunchasi bilan birga **«raqamli ilmiy ijod erkinligi»** tushunchasini ham konstitutsiyaviy huquq fani doktrinasiga kiritish taklif qilinadi.

Shuningdek, **raqamli muhitda ilmiy faoliyat yuritish qoidalarini ishlab chiqish** zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu qoidalarda texnologik vositalardan foydalanish va axborot xavfsizligi masalalari hisobga olinishi kerak. Bundan tashqari, ilmiy natijalarning haqqoniyligini tekshirish mexanizmlari, ilmiy etika normalariga rioya etilish tartibi va uni nazorat qilish, ilmiy ijod subyektlarining huquqiy maqomini, mualliflik huquqi va intellektual mulk institutlarini takomillashtirish masalalari o'z aksini topishi lozimligi isbotlandi.

II. Normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

13. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga **«ilmiy ijod erkinligi – bu shaxsning ilmiy-tadqiqot faoliyatini erkin tanlash, amalga oshirish va natijalarini tarqatish bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatlangan huquqi bo'lib, u davlat tomonidan huquqiy, tashkiliy va moliyaviy jihatdan ta'minlanadi»**, degan mazmunda norma kiritish taklif qilinadi. Bu ta'rif ilmiy ijod erkinligining asosiy elementlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, uni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiqdir.

14. Ilmiy ijod erkinligining tarkibiy elementlarini qonunchilikda aniq belgilab qo'yish taklif qilinadi. Bunda tadqiqot yo'nalishini tanlash erkinligi, metodologiyani tanlash erkinligi, ilmiy natijalarni e'lon qilish erkinligi, ilmiy hamkorlikni amalga oshirish erkinligi va ilmiy muloqot hamda munozara erkinligi kabi elementlarni qamrab olish lozim. Bu elementlarni «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida alohida band sifatida mustahkamlash zarurligi asoslab berildi.

15. Davlatning ilmiy ijod erkinligini ta'minlash majburiyati – bu davlat ilmiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ishonchli sud himoyasi bilan ta'minlashni anglatadi.

Bundan tashqari, ilmiy ijod natijalariga bo'lgan mualliflik huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu borada intellektual mulk huquqini himoya qilishning samarali tizimini yaratish, mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar uchun moliyaviy manbalarni shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Bunda davlat byudjeti mablag'lari bilan bir qatorda xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish, grant mablag'laridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida belgilangan «Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi» degan konstitutsiyaviy normani **«Intellektual faoliyat**

natijalariga bo'lgan huquqlar va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalari qonun bilan muhofaza qilinadi» deb o'zgartirish taklif etiladi.

16. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunining 14-moddasi ikkinchi qismini *«Ilmiy faoliyat subyektlari o'z ilmiy faoliyati natijalarini ochiq elektron platformalar orqali e'lon qilish va tarqatish huquqiga ega. Bunda davlat, xizmat va tijorat sirlari bilan bog'liq ma'lumotlarni oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi»* degan tahrirda qo'shimcha band kiritish taklif qilinadi.

17. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunining 31-moddasining birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi: *«Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish foyda olish maqsadida ilmiy faoliyat natijalarini fuqarolik muomalasiga kiritish jarayoni bo'lib, unda ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim muassasalarining intellektual mulk obyektlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq faoliyati rag'batlantiriladi».*

18. Ilmiy faoliyat subyektlarining huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga quyidagi normalarni kiritish taklif etiladi: ilmiy faoliyat subyektlarining huquqlari buzilganda sudga murojaat qilish tartibi; ilmiy tashkilotlar faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlik; ilmiy xodimlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus vakolatli organ vakolatlarini kengaytirish taklif qilinadi.

19. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga qo'shimcha ravishda 31¹-modda bilan to'ldirish taklif qilinadi:

“31¹-modda. Ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlari

Ilmiy ijod erkinligini ta'minlash mexanizmlari quyidagilardan iborat:

ilmiy ijod erkinligini himoya qilishning davlat mexanizmlari;

ilmiy ijod erkinligini o'z-o'zini himoya qilish mexanizmlari;

ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari;

ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning moliyaviy mexanizmlari”.

20. Ilmiy ijod erkinligini tartibga solishning amaliy mexanizmlari sifatida qonunchilikka **ilmiy ijod erkinligini davlat tomonidan himoya qilish va o'z-o'zini himoya qilish mexanizmlarini** belgilash taklif qilinadi.

Bizningcha ilmiy ijod erkinligining o'z-o'zini himoya qilish mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ilmiy hamjamiyatning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish; ilmiy faoliyat subyektlarining kasbiy uyushmalarini tuzish; ilmiy etika qoidalarini ishlab chiqish va ularga rioya etilishini ta'minlash.

21. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunining 39-moddasini quyidagi tahrirdagi ikkinchi qismi bilan to'ldirish taklif qilinadi: *«Ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari faoliyatini moliyalashtirishda xususiy sektorning ishtiroki davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Bunda xususiy sektor tomonidan kiritilgan investitsiyalar miqdoriga mutanosib ravishda soliq imtiyozlari berilishi mumkin».*

22. O'zbekiston Respublikasining «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuniga quyidagi mualliflik tushunchalarini kiritish taklif qilinadi:

«Ilmiy xodim (tadqiqotchi) — zarur malakaga ega bo‘lgan hamda ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyat bilan professional ravishda shug‘ullanuvchi shaxs.

Ilmiy xodimlarning lavozimlari davlat va nodavlat ilmiy-tadqiqot muassasalarida, ta‘lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda, shuningdek ilmiy va (yoki) ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarda nazarda tutiladi».

«Ilmiy faoliyat – bu maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat sohasida yangi bilimlarni yaratish, ulardan amaliyotda foydalanish va ularni tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat bo‘lib, u fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari, ilmiy-texnik mahsulotlarni yaratish, ilmiy kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi».

«Davlat ilmiy tashkilotlari - bu davlat tomonidan tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, asosiy faoliyat turi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo‘lgan yuridik shaxslar bo‘lib, ular ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni amalga oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish vazifalarini bajaradi».

23. O‘zbekiston qonunchiligida «yosh olim» tushunchasiga quyidagicha ta‘rif keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. *«Yosh olim – ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, yoshi 35 dan oshmagan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega shaxs yoki yoshi 40 dan oshmagan fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega shaxs».*

24. Ilmiy xodimlarning huquqiy maqomini ta‘minlanishi va davlat tomonidan huquqlarini kafolatlanishi quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin: ilmiy tadqiqotlarning sifati oshishiga; ilmiy yangiliklarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi osonlashishiga; yoshlarning ilm-fanga qiziqishini ortishiga; ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinishni kuchayishiga.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu davlatlarda olimlarga bo‘lgan yuqori ishonch darajasi ilmiy faoliyat uchun yaratilgan qulay sharoitlar va ilmiy erkinlikning ta‘minlanganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

25. Ilmiy ijod erkinligini cheklash – bu ilmiy faoliyatni taqiqlash emas, balki uni tartibga solish mexanizmi hisoblanadi. Cheklashlar orqali ilm-fan rivoji bilan jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanat ta‘minlanadi.

Shu bois ham, ilmiy faoliyatni cheklashda quyidagi prinsiplarga amal qilish kerak: *ochiqlik va shaffoflik; asoslilik va obyektivlik; ilmiy hamjamiyat manfaatlarini hisobga olish; inson huquqlari ustuvorligi; jamiyat manfaatlariga moslik.*

Ilmiy ijod erkinligini cheklash asoslari va tartibi qonunchilikda aniq belgilanmagan. Bu esa amaliyotda asossiz cheklovlarning qo‘llanilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ba‘zi ilmiy muassasalar rahbarlari “ma‘muriy zarurat” bahonasida tadqiqotchilarning erkinligini cheklashi mumkin.

Shu bois, milliy qonunchiligimizda ilmiy ijod erkinligini cheklash **uch asosiy mezonga muvofiq** amalga oshirilishi taklif qilinadi: *qonuniylik* – faqat qonunda belgilangan asoslarda; *mutanosiblik* – ko‘zlangan maqsadga mos ravishda; *zaruriylik* – boshqa usullar bilan maqsadga erishib bo‘lmagan hollarda.

**SCIENTIFIC COUNCIL No DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

ASLONOVA LAYLO OLIMOVNA

**CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF FREEDOM OF
SCIENTIFIC CREATIVITY**

12.00.02. – Constitutional law. Administrative law.
Finance and customs law

**Abstract of doctoral (PhD) dissertation
on legal sciences**

Tashkent – 2025

The theme of the doctoral dissertation (PhD) is registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number V2022.1.PhD/Yu668.

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) and Information and educational portal "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Scientific adviser:

Bekov Ikhtiyor Rustamovich
Doctor of Sciences in Law, professor

Official opponents:

Mukhamedojanov Amonullo Zokirovich
Doctor of Sciences in Law, professor

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich
Doctor of Sciences in Law, professor

The leading organization:

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan

The defense of the dissertation will be held on September 6, 2025 at 10:00 a.m at the Session of the Scientific Council No. DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 at Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgokh street, 35. Tashkent city. Phone: (998971) 233-66-36; Fax: (998971) 233-37-48; e-mail:info@tsul.uz).

The doctoral dissertation (PhD) is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No. 1413.), (Address 100047, Amir Temur Street, 13. Tashkent city. Phone: (998971) 233-66-36).

The abstract of the dissertation was distributed on August 22, 2025.

(Registry protocol № 27 on August 22, 2025).

R.R. Khakimov

Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

F.B. Makhmudov

Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science (DcS) in Law, Associate professor

SH.G'. Asadov

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

INTRODUCTION (DISSERTATION ANNOTATION)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The international recognition of freedom of scientific creativity as one of the fundamental human rights, along with its legal protection, has become increasingly significant. In particular, efforts to encourage the scientific activities of young researchers, support their innovative ideas, and make the field of science more attractive are gaining urgency as foundational measures for the development of investment and innovation. According to UNESCO's 2023 edition of the Science Report, published every four years, global expenditures on research and experimental development (R&D) increased by an average of 19.2percent during 2014–2018, while this figure reached 23.4percent during 2019–2023. This indicates consistent progress in the creation of material and technical conditions to ensure freedom of scientific creativity⁸. For example, in 2023, the global share of women researchers was 33.3 percent, which is 2.1 percent higher than in 2019⁹. This positive trend reflects the development of freedom of scientific creativity on the basis of gender equality.

In a survey published in 2025 by the European organization Ipsos Global Trustworthiness Index, over 23,000 adults under the age of 75 from 32 countries participated. The results of this study showed that scientists, along with medical doctors, are considered among the most trustworthy professionals in 11 EU countries out of a list of 21 professions. Notably high levels of public trust in scientists were observed in Spain (65percent), the Netherlands (65percent), and Romania (57percent). This highlights the significant role and value of scientists in society¹⁰.

These indicators demonstrate that, in recent years, the rapid development of science and technology and the integration of modern and efficient technologies into production have become a top priority and essential task for many states. In today's world, not physically strong individuals, but rather intellectually capable, constantly creative individuals who can lay the foundation for economic growth through unique and effective innovations are increasingly valued.

Globally, important research directions include the introduction of effective constitutional mechanisms for the protection of freedom of scientific creativity, the improvement of the legal framework for encouraging scientific research activities, the development of legal systems for protecting scientific discoveries and inventions, clear definition of the grounds and limits for restricting academic freedom, legal assessment of creative works generated with the help of artificial intelligence, support for digital and environmental scientific research, and prioritizing investments in these fields.

In recent years, Uzbekistan has been implementing a range of measures aimed at enhancing scientific research activities, ensuring freedom of scientific creativity, and further improving national mechanisms in this area. These include the wide-

⁸ UNESCO Science Report: Race Against Time for Smarter Development, UNESCO Publishing, Paris, 2023, p.45. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377250>

⁹ UNESCO Science Report: Race Against Time for Smarter Development, UNESCO Publishing, Paris, 2023, p.45. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377250>

¹⁰ <https://www.euronews.com/video/2025/01/17/trust-issues-these-are-the-professions-europeans-trust-the-most-and-the-least>

scale introduction of digital technologies into scientific work, increasing the practical significance and commercialization of research, improving the legal protection of intellectual property, training highly qualified personnel with modern knowledge and independent thinking, and modernizing scientific infrastructure—all of which have been elevated to a qualitatively new stage.

The Development Strategy of New Uzbekistan identifies as priority objectives: the widespread introduction of innovations into the economy, harmonizing scientific research with practical needs, conducting thematic social surveys in relevant areas and carrying out scientific research based on their results, developing cooperation between industrial enterprises and scientific institutions, creating broad opportunities in all areas for the implementation of innovative projects, and introducing modern mechanisms to support research and innovation initiatives¹¹. These goals underline the urgency of improving legislation in this field.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan (2023), the Law “On Science and Scientific Activity” (2019), the Law “On Education” (2020), the Law “On Innovative Activity” (2020), the Law “On the Status of the Teacher” (2024), the Presidential Decree No. PF–60 dated January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”, the Presidential Decree No. PF–158 dated September 11, 2023 “On the Uzbekistan – 2030 Strategy”, the Presidential Decree dated October 30, 2020 “On the Approval of the Concept for the Development of Science Until 2030”, and the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 132 dated March 9, 2020 “On Measures to Further Improve the Legal Framework for the Development of Scientific Research and Innovation Activity”, along with other relevant legal documents, serve as a basis for the implementation of this dissertation’s research findings to a certain extent.

Relevance of the research to national priorities in science and technology development. The research topic aligns with the national priority direction of “Forming and implementing a system of innovative ideas for the development of an information society and a democratic state in social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational spheres.”

Degree of scholarly elaboration of the issue. Various studies have been conducted by national scholars on the guarantees of academic freedom and creative rights, the individual’s right to create, the process of obtaining academic degrees, and issues of cooperation with non-governmental non-profit organizations in this field. Moreover, research in this area continues to be relevant to this day. It is appropriate to consider academic studies related to the constitutional and legal guarantees of an individual’s academic freedom within the following directions:

First, in national legal science, scholars such as A. Saidov, R. Hakimov, Sh. Yakubov, and A. Mirkomilov have analyzed the guarantees of scientific creativity and academic freedom in their scholarly articles. Additionally, scholars like A. Rasulev, Sh. Khojaev, D. Matrasulov, S. Saidov, and V. Khan have expressed their well-reasoned views on the state of scientific development and the prospects of

¹¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" // National Database of Legislation, January 29, 2022, No. 06/22/60/0082.

academic freedom in Uzbekistan through popular articles¹². Moreover, regarding the freedom of scientific creativity, the essence of author rights has been studied in the scientific works of O. Okulov, A. Egamberganov, and M. Inagamova. However, the analysis of the above-mentioned scientific works shows that the theoretical and practical issues related to analyzing the constitutional and legal foundations of scientific creativity freedom, especially the legal mechanisms for ensuring science rights and freedoms, have not been studied by national scholars as a separate dissertation based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and advanced foreign experiences.

Second, among the scholars of CIS countries, Russian scholars such as D. S. Shaporeva, I. D. Yagofarova, O. V. Romanovskaya, D. I. Artemova, N. V. Chernx, S. Yu. Kashkin, L. G. Berlyavskiy, and Belarusian jurist L. A. Kisileva¹³ have deeply analyzed the legal nature of scientific creativity freedom.

Third, scholars from Europe and foreign countries such as Shaver, L., Andrea Boggio and Cesare P. R. Romano (USA), Amedeo Santosuosso (Italy) have studied the right to science from a legal perspective, while the works of Schabas, W. A. (USA), Artur Biłgorajski (Poland), A. Chapman, J. Vindxam, Helle Porsdarm, and Sebastian Porsdarm Mann (Switzerland), Harris T. L., Walter P. Metzger¹⁴ have provided a scientific-theoretical analysis of the content and essence of freedom of scientific creativity in their works.

Relevance of the research to the scientific research plans of the higher education institution. The research topic is included in the scientific research plan of Tashkent State University of Law and is carried out within the framework of the plan titled "Improving the Protection of Fundamental Human Rights in the Context of Deepening Democratic Reforms."

Purpose of the research. The purpose of the research is to improve the constitutional and legal foundations of ensuring the right to scientific creativity freedom for citizens of the Republic of Uzbekistan and to develop proposals and recommendations aimed at enhancing the effectiveness of legal regulations and the application of law in this area.

The research objectives are to

- reveal the content and essence of the concept of freedom of scientific creativity, and to study its socio-legal nature;
- analyze the constitutional and legal characteristics of freedom of scientific creativity and examine its place within the system of human rights;
- study the formation process of the institution of freedom of scientific creativity, analyze its historical stages of development and characteristics in different periods from a comparative-historical perspective;
- examine the constitutional and legal foundations of ensuring freedom of scientific creativity in the Republic of Uzbekistan, assess the level of its consolidation in national legislation, and analyze the state of the normative-legal framework;

¹² A complete list of the works of these scientists is given in the list of references of the dissertation.

¹³ A complete list of the works of these scientists is given in the list of references of the dissertation.

¹⁴ A complete list of the works of these scientists is given in the list of references of the dissertation.

- study the national mechanisms for ensuring freedom of scientific creativity in the Republic of Uzbekistan, evaluate their effectiveness, and develop proposals for their improvement;

- analyze the legal status of scientific personnel, their opportunities for exercising freedom of scientific creativity, and the system of guarantees provided to them;

- examine the legal grounds for restricting freedom of scientific creativity, the mechanisms of imposing restrictions, and assess their legality and expediency;

- study the standards of enshrining freedom of scientific creativity in international legal documents, the mechanisms of international guarantees, and their impact on the national legal system;

- develop prospective directions and proposals for improving the mechanisms of ensuring freedom of scientific creativity in the Republic of Uzbekistan.

The object of the research is the system of legal relations related to ensuring the right to scientific creativity freedom for individuals in the Republic of Uzbekistan.

The subject of the research includes the normative-legal documents that regulate the legal relations related to ensuring the right to scientific creativity freedom, law enforcement practices, internationally recognized standards, the legislation and practices of foreign countries, as well as the conceptual approaches present in "Constitutional Law," "Comparative Constitutional Law," scientific-theoretical views, and legal categories.

Methods: The research employs various methods, including historical, systemic-structural, formal-legal, comparative-legal, logical methods, as well as a comprehensive study of scientific sources, surveys, induction, deduction, and statistical data analysis.

Scientific novelty of the research includes the following:

Justification of the need for citizens, non-governmental non-profit organizations, and other institutions of civil society to have the right to carry out public control over the implementation of legislation related to science and scientific activity;

Justification that scientific organizations should have the right to create organizations that commercialize scientific results, centers for collective use of scientific instruments, and other organizations, as well as the right to create unique scientific objects in accordance with the legislation;

Justification that scientific expertise should be carried out based on the principles of openness while respecting state, service, and commercial secrets, in accordance with legislation;

Justification of the need for the national information space of science and scientific activity to ensure unrestricted use of any information resources, regardless of ownership, in accordance with the procedures established by law.

Practical results of the research include:

Proving the need to establish as a separate provision in Article 4 of the "Law on Science and Scientific Activity" the constituent elements of scientific creativity freedom, such as the freedom to choose research directions, the freedom to choose

methodology, the freedom to publish scientific results, the freedom to engage in scientific cooperation, and the freedom of scientific communication and discussion;

developing a proposal to introduce Article 311 into the "Law on Science and Scientific Activity" of the Republic of Uzbekistan, which defines mechanisms for ensuring scientific creativity freedom;

developing a proposal to include the criteria for restricting scientific creativity freedom—legality, proportionality, and necessity—into the "Law on Science and Scientific Activity" and justifying the need for their incorporation into the legislation;

proposing the approval of the "Ethics of Scientific Research, Rules of Integrity, and Standards" by the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, which includes national standards for scientific research, mechanisms for verifying scientific results, scientific ethics rules, and the procedure for publishing scientific works.

The reliability of research results The general theoretical conclusions presented at the end of the research, as well as the proposals aimed at improving legislative acts, are based on the theoretical views found in the subjects "Constitutional Law," "Comparative Constitutional Law," and "Scientific and Practical Issues of Constitutional Law," and the analysis of national legislative norms and law enforcement practice.

The reliability of the research results is determined by the methods used in the work, the scientific-theoretical approaches utilized within its scope, which are taken from official sources, the mutual analysis of international experience, international standards, and national legislative sources, the application of conclusions, proposals, and recommendations in practice, the publication of results in leading national and foreign publications, and the approval of the results by authorized bodies.

The scientific and practical significance of the research results. The scientific significance of the research results is manifested in the development of scientific research related to improving the organizational-legal foundations of ensuring scientific creativity freedom, commenting on the relevant norms of legislative acts, improving national legislation, and using the findings to enhance the teaching of the subjects "Constitutional Law," "Comparative Constitutional Law," and "Scientific and Practical Issues of Constitutional Law."

The practical significance of the research results is determined by their potential to be used in improving normative-legal documents regulating the freedom of scientific research in the Republic of Uzbekistan, as well as in law enforcement practice and activities of scientific subjects.

The implementation of research results Based on the scientific results obtained for improving the constitutional-legal foundations of scientific creativity freedom:

the proposal that citizens, non-governmental non-profit organizations, and other institutions of civil society should have the right to exercise public control over the implementation of legislation on science and scientific activities was considered in the new revision of Article 10, Paragraph 3, of the Law of the Republic of Uzbekistan on "Science and Scientific Activities" (Law No. LRU-683) adopted on

April 21, 2021 (Information letter No. 3/08-16 dated January 30, 2025, from the Parliamentary Research Institute of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). The implementation of this proposal served the introduction of the procedure for public control over the implementation of legislation on science and scientific activities by civil society institutions;

the proposal that scientific organizations, in accordance with the established procedure, should have the right to organize organizations involved in the commercialization of scientific results, centers for collective use of scientific equipment, and other organizations, as well as the establishment of unique scientific objects, was considered in the new revision of Part 2, Article 16 of the Law of the Republic of Uzbekistan on "Science and Scientific Activities" (Law No. LRU-576) adopted on April 21, 2021 (Information letter No. 3/08-16 dated January 30, 2025, from the Parliamentary Research Institute of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). The implementation of this proposal served to define the right of scientific organizations to establish organizations involved in the commercialization of scientific results, centers for collective use of scientific equipment, and other organizations, as well as the establishment of unique scientific objects;

the proposal that scientific expertise, in accordance with legislation, must be carried out while respecting state, service, and commercial secrets and based on the principle of openness of expertise results, was considered in the new revision of Paragraph 6 of Part 2, Article 26 of the Law of the Republic of Uzbekistan on "Science and Scientific Activities" (Law No. LRU-576) adopted on April 21, 2021 (Information letter No. 3/08-16 dated January 30, 2025, from the Parliamentary Research Institute of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). The implementation of this proposal helped define the procedure for conducting scientific expertise based on contemporary requirements;

the proposal that the close relationship between science, scientific activities, and the national information space should ensure the free use of any information resources, regardless of ownership, in accordance with the procedures defined by law, was considered in the new revision of Part 1, Section 3, of Article 30 of the Law of the Republic of Uzbekistan on "Science and Scientific Activities" (Law No. LRU-683) adopted on April 21, 2021. This was taken into account in the development of the third section of Part 1 of Article 30 (Information letter No. 3/08-16 dated January 30, 2025, from the Parliamentary Research Institute of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). The implementation of this proposal served to introduce the procedure for freely using any information resources, regardless of ownership, in the national information space in accordance with the law;

Approbation of the research results. The results of this research were approved at 4 scientific conferences, including 2 international and 2 republican scientific-practical conferences, roundtables and seminars.

Publication of research results. A total of 13 scientific works have been published based on this research, including 9 in scientific journals (3 in foreign publications) and 4 scientific articles in collections.

The Structure and volume of the dissertation. The dissertation consists of an introduction, three chapters containing ten sections, a conclusion, a list of references, and appendices. The dissertation is 158 pages long.

THE MAIN CONTENT OF THE DISSERTATION

The introduction of the dissertation discusses the relevance and necessity of the topic, its alignment with the main priority areas of scientific-technical and technological development of the republic, the degree of the issue's exploration, the connection of the dissertation with the scientific research plan of the higher educational institution, the objectives and tasks of the research, the object and subject of the study, its methodology, the scientific novelty and practical results of the research, the reliability of these results, and the scientific and practical significance of the research, its implementation, approval, and the publication of its results.

The first chapter of the dissertation is titled "Theoretical and Legal Foundations of the Institute of Scientific Creativity Freedom," and it explores the concept of scientific creativity freedom and its socio-legal essence, the constitutional-legal nature of scientific creativity freedom, its place in the system of human rights, the formation of the legal basis for scientific creativity freedom, and its historical development stages.

The author studies the nature of the concept of scientific creativity freedom and reveals its legal content. The researcher interprets scientific creativity freedom both in a broad and narrow sense. In a broad sense, it is the individual's ability to engage in scientific activities, while in a narrow sense, it refers to the constitutional right to freely choose the research direction, freely disseminate and use scientific results.

The researcher, analyzing the views of foreign scholars (M.Polanyi, R.K.Merton, R.Berdahl, P.Dasgupta, P.A.David, J.Butler), identifies three key elements of scientific creativity freedom: the freedom to choose a research topic, methodological independence, and the freedom to publish results. The author has formulated a scientific conclusion that freedom of scientific creativity is a form of freedom based on professional competence and responsibility, oriented towards the interests of society and grounded in professional expertise. This freedom represents a unity of rights and obligations, and it must be exercised within the framework of ethical norms, methodological requirements, and social responsibility.

Within the scope of the research, the integrative concept of freedom of scientific creativity has been comprehensively analyzed, and the necessity of its application to the legislation of Uzbekistan has been substantiated. The concept proposed by the author demonstrates the need to move away from a fragmented approach to the regulation of scientific activity and to establish a unified and comprehensive system. In particular, the author has reached the scientific conclusion that it is necessary to enshrine the constitutional guarantees of freedom of scientific creativity in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Science and Scientific Activity," to regulate the relations between state bodies and scientific institutions on the basis of integrative principles, and to introduce legal mechanisms that encourage

interdisciplinary cooperation. The author emphasizes that this approach is crucial for modernizing the scientific sphere in Uzbekistan, ensuring effective integration into the international scientific community, and fostering the development of an innovative economy.

In explaining the legal nature of scientific creativity freedom, the author distinguishes two important aspects: as a subjective right, it is the individual's opportunity to engage in scientific activities; as an objective right, it is the state's duty to regulate and support scientific activities.

The researcher explores the constitutional-legal nature of scientific creativity freedom and justifies its special place in the human rights system, highlighting its connection with other fundamental rights such as the freedom of expression, the right to education, and intellectual property rights.

The author, by systematically analyzing the formation and historical development stages of freedom of scientific creativity, has substantiated the necessity of dividing this process into five main periods. The first stage is the period of antiquity and the Middle Ages, during which scientific knowledge primarily developed within the framework of religious and philosophical teachings. Although freedom of science was limited, the emergence of the first scientific schools can be observed. The second stage is the Renaissance period in science (the era of Nicolaus Copernicus and Galileo Galilei), characterized by scientific revolutions, the development of experimental methods, and the emergence of independent scientific thought free from religious dogmas. The third stage covers the period of the First and Second World Wars, marked by the rapid development of science, the strengthening of mechanisms for state funding and control of scientific research, and the growing importance of scientific discoveries in the context of military-technological competition. The fourth stage is the period of the emergence of international standards regulating science, characterized by the adoption of the Universal Declaration of Human Rights and the formation of mechanisms for international scientific cooperation. The fifth stage is the era of artificial intelligence, distinguished by new technological opportunities in science, digital transformation, the introduction of modern methods of data processing, and the automation of scientific research, which ushers in a qualitatively new stage of development.

The author systematically analyzes the formation and historical stages of scientific creativity freedom. The struggle for scientific freedom, from religious pressures in the Middle Ages to ideological restrictions in the 20th century, is illustrated.

The experience of Uzbekistan has been studied separately in the research. The Jadid movement at the beginning of the 20th century and the subsequent Soviet-era repressions are analyzed, showing that the restrictions imposed on scientific and creative freedom not only affected the fate of individual scientists but also had a negative impact on the scientific and cultural development of the entire nation.

The author has revealed new dimensions of scientific creativity freedom in the modern era. The research indicates that the right to science encompasses not only the use of the results of scientific progress but also the ability to use scientific methods and knowledge. This increases the practical significance of this right.

The most important conclusions drawn by the author in this chapter are as follows:

Firstly, scientific creativity freedom is a natural right of an individual that serves to realize their intellectual potential. This freedom is inherent in nature and is not granted by the state but is recognized and guaranteed.

